

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM SOHASIDA
QO'LLANILISHI VA IMKONIYATLARI**

*Abdullayeva Zilola Muxitdinovna
Ohangaron shahar kasb-hunar maktabi*

*Ishlab chiqarish ta'lim ustasi
Anarbayeva Saodat G'ofovovna
Ohangaron shahar kasb-hunar maktabi
o'quv metodik bo'lim uslubchisi*

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari kabi raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimida ham joriy etish uning faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Bu nafaqat ta'lim oluvchilar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki eletron ma'lumotlar tizimini ham rivoji uchun xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: e-ta'lim, raqamli iqtisodiyot, elektron ma'lumotlar ba'zasi, artificial intelligence.

Mamlakatimizning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar kabi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo'nalishlar ochib beradi. Jamiyatning raqamli texnologiyalar tomon burilishi ro'y berishiga butun jahon internet tarmog'ining sifati oshishi hamda aloqa tizimlarining rivojlanishi sababchi bo'ldi. Natijada katta hajmdagi ma'lumotlar almashinish va ularni to'plash imkon paydo bo'ldi, bu esa, o'z navbatida, to'plangan axborotni qayta ishlashga, bashorat qilishga, asoslangan qarorlar qabul qilishga va xilma-xil usullarda foyda olishga imkon beradi. Bularning barchasi uchun esa mos keluvchi infratuzilma, boshqacha qilib aytganda, global axborot platformalari ekotizimini yaratish zarur bo'ladi.

Yurtimizda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, ta'limga innovatsiyalarni, raqamli texnologiyalarni keng targ'ib qilish, talaba yoshlarni sifatli ta'lim materiallari bilan ta'minlash, yoshlarni ta'lim qamrovini oshirish yuzasidan ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-yilda oily ta'limga qabul parametrlari 2016-yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sdi, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9%dan 25%ga yetdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Ta'lim tizmida innovatsiyalarni shu jumladan, o'qitishning interaktiv va ijodiy uslublarini joriy etish orqali targ'ib qilishga ko'maklashish, raqamli texnologiyalardan foydalananishni nazarda tutuvchi innovatsion o'quv dasturlarni ishlab chiqishni ta'minlash" vazifalari belgilab berildi.

Zamonaviy jamiyat hayotiga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish, axborot makonini shakllantirish va elektron ta'lim tizimlarini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv jarayonini tashkil etish, ta'limga yondashuvlarni sifatlari qayta ko'rib chiqish, shuningdek, ta'lim tizimini jadallashtirish to'g'risida yangi ilmiy va pedagogik g'oyalarni shakllantirishga olib keladi. Raqamli va axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga va o'quv jarayoniga keng joriy etish dunyo miqyosidagi tendentsiya bo'lib, yaqinda ta'lim tizimida sodir bo'lgan eng muhim jarayonlardan birini anglatadi.

Texnologiya so'zi grekchadan tarjima qilinganda san'at, ustalik, malaka ma'nosini anglatadi. Texnikada texnologiya deganda ma'lum kerakli material mahsulotni hosil qilish uchun usullar, metodlar va vositalar yig'indisidan foydalanadigan jarayon tushuniladi. Texnologiya ob'ektining dastlabki, boshlang'ich holatini o'zgartirib, yangi, oldindan belgilangan talabga javob beradigan holatga keltiradi. Misol uchun sutdan turli texnologiyalar orqali qatiq, tvorog, smetana, yog' va boshqa sut mahsulotlarini olish mumkin. Agar boshlang'ich xom ashyo sifatida axborot olinsa, ushbu axborotga ishlov berish natijasida axborot mahsulotinigina olish mumkin. Ushbu holda ham "texnologiya" tushunchasining ma'nosi saqlanib qolinadi.

Texnologiyani quyidagicha ta'riflash mumkin. Texnologiya - bu sun'iy ob'ektlarni yaratishga yo'naltirilgan jarayonlarni boshqarishdir. Kerakli jarayonlarni kerakli yo'nalishda borishini ta'minlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar qanchalik yaxshi tashkil etilganligi texnologiyaning samaradorligini bildiradi.

Shu bilan birga, ta'lim sohasini texnologik yangilash bosqichi vazifasini bajaruvchi ta'limni kompyuterlashtirish, ta'lim jarayoniga kompyuter texnologiyalarini joriy etish bilan birga, ta'lim jarayonini kompyuter asosiga o'tkazishni, kompyuterli o'qitish usullarini yaratishni, kompyuterli o'qitish tizimlari va o'rgatuvchi dasturlarni tasvirlaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kasb-hunar mакtabida ta'lim olishni boshlagan vaqt dan boshlab ommaviy ravishda o'qitishimiz maqsadga muvofiq, chunki bu davrda o'quvchilar ko'nikmalarga tez erishishadi.

Ta'limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq qilish va foydalanishdan asosiy maqsad – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, ya'ni ta'lim oluvchi va beruvchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratib berishdan iboratdir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng ko'lamda joriy qilish quyidagilarni beradi:

- o'quv va ilmiy axborotlarni talaba hamda professor-o'qituvchilar tomonidan qidirib topishga ketadigan vaqtning qisqarishi;
- elektron o'quv adabiyotlar mazmunini davr talabidan kelib chiqqan holda o'zgartirishni tezlashtirilishi;
- talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun qo'shimcha vaqtning ajratilishi.

Multimedia-texnologiyalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy dasturiytexnik vositalarining mujassamlanishi talabalarning, ya'ni audioaxborot (ovoz), videoaxborot va animasiya (multiplikasiya, «tirik video») ko'rinishdagi axborotlarni turli xis etuvchi organlari tomonidan qabul qilish darajasini yuksaltirilishini ta'minlaydi. Bu esa darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishni ta'minlaydi. Shaxsiy kompyuter o'qituvchining yordamchisi sifatida ishtirok etadi. O'qituvchi ma'ruzalarga tayyorlanishida Microsoft Office dasturining Power Point grafik dasturida videoslaydlar tayyorlashi zarur bo'ladi. Bu albatta o'qituvchidan shaxsiy kompyuterda ishslash tajribasiga ega bo'lishini talab etadi. Bundan tashqari bunday ma'ruzalarni yoki amaliyot mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun maxsus jihozlangan auditoriyalarni talab qiladi.

Keyingi bosqichda kasb-hunar maktablari talabalari uchun maxsus davlat tilidagi multimedia kurslarini ishlar chiqib joriy qilish muhim hisoblanadi. Uchinchi bosqichda, oliy o'quv yurtlari bazasi va qolaversa texnologik parklar qoshida dasturchilar sinfini shakllantirish kerak bo'ladi. Bundan tashqari, ta'limning barcha bosqichlarida pilot loyihalarni o'tkazib, uning natijalari asosida kerakli qarorlar qabul qilish lozim; o'quv jarayoni uchun ishlab chiqilishi kerak bo'lgan dasturiy mahsulotlar davlat tomonidan to'liq moliyalashtirilishi kerak; mamlakat darajasida ta'lim resurslarini qamrab olgan yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish lozim; respublika hududlarida ta'limni axborotlashtirish darajasini doimiy ravishda tahlil qilib, uning asosida kerakli qarorlarni qabul qilish kerakdir.

Ma'lumki bugungi kunda kompyuter raqamli format hisobiga axborotni barcha ma'lum bo'lgan usullarda taqdim etishni ta'minlaydi. Xuddi shunday u bitta tashuvchida ta'limiy jarayon hamma komponentalarining o'quv-metodik ta'minotini birlashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. – T.: Cho'lpox, 2005.
2. Azizzxo'jayev A. Chin o'zbek ishi. – T.: “O'zbekiston”, 2011.
3. Egamberdiyeva N.M., Xodjayev B.X. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talqin va yechim. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – B.30-32.
4. Ganiyeva M., Fayzullayev D. Zamonaviy o'qitish vositalarining pedagogik texnologiyalari to'plami. - T.: Iqtisodiyot, 2013;
5. Ganiyeva M., Fayzullayev D., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami. -T.: Iqtisodiyot, 2013;
6. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun tanlash, amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. -T.: TASIS, 2001.-38 b.